

## **Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!**

"Asaka" banki 2013 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlari erishishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida"gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori talablarini ijrosini ta'minlash yuzasidan muayyan ishlarni amalga oshirdi va quyidagi ko'rsatkichlarga erishdi.

2014 yil 1 yanvarb holatiga bankning jami **aktivlari 4,64 trln.so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan **8,74% ga o'sgan**.

Bank **kapitalining** jami **691,1 mlrd. so'mga** etkazilib, o'tgan yilga nisbatan **17,8% ga o'sgan**.

Bank ustav kapitali **20 foizga** ko'payib, **435,7 mlrd.so'mni** tashkil qildi.

Bank **daromadining** umumiyl miqdori **559,8 mlrd so'mni** tashkil qilib o'tgan yilning mos davriga nisbatan **128%** oshgan.

Bank **foydasi 65,3 mlrd so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan **137% ga oshgan**.

Bankning jami **kredit qo'yilmalari 2,4 trln. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **131,6 % o'sgan**. Kredit qo'yilmalarining **700.0 mlrd. so'mi** (kredit portfeli 28,7%) **qisqa muddatli kreditlar** va **1,7 trln. so'mi** (71,3%) **uzoq muddatli kreditlarni** tashkil etadi.

2013 yil davomida bank tomonidan jami **706.4 mlrd. so'm** miqdorida **investitsiya kreditlari ajratilgan**.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida **75,3 mlrd. so'm** miqdoridagi **78 ta**

bank kafolatlari berilgan, Ochilgan akkredetivlar bo'yicha qoldiq **850,7 mlrd. so'mni** tashkil qiladi.

O'z.R. Prezidentining 2012 yil 21 noyabrdagi PQ-1855-sonli qarori bilan tasdiqlangan **Davlat Investitsiya dasturiga kiritilgan 9 ta** investitsiya loyihasi doirasida **55,02 mlrd. so'm** miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan.

Bankning lizing amaliyotlari hajmi **65,04 mlrd. so'mni** tashkil qilib, **60 ta** xo'jalik sub'ektiga ko'rsatilgan lizing xizmatlari natijasida **519 tadan** ortiq yangi ish o'rnlari yaratilgan.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash** uchun **702,3 mlrd. so'mdan** ortiq miqdorda kredit mablag'lari ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **133,4 %** tashkil etdi.

Ajratilgan **mikrokreditlar** hajmi **43,4 mlrd. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **130 foizni** tashkil etdi.

**Ayollar tadbirkorligini** qo'llab-quvvatlashga **57,7 mlrd.so'm** miqdorida kredit mablag'lari ajratilib, o'tgan yilga nisbatan **135,3 %** ko'paygan.

O'zR Prezidentining PQ-308-sonli va PQ-842-sonli qarorlarga asosan **qoramol sotib olishga** ajratilgan mikrokreditlar hajmi **5,5 mlrd. so'mni** tashkil etib, o'rnatalgan reja **104,7 %** bajarildi.

O'zR Prezidentining PQ-1047-sonli qaroriga asosan **oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ga 152,9 mlrd. so'm** miqdorida kreditlar ajratilib, Markaziy bank rejası **110,1 %ga** bajarilgan.

O'zR Prezidentining PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga **126,5 mlrd.so'mdan** ortiq kreditlar ajratilib, Markaziy bank rejasi **111,4 %ga** bajarildi.

**Oilaviy tadbirkorlik va hunarmand chilikni rivojlantirish** uchun ajratilgan kreditlar hajmi **6,9 mlrd.so'mni** tashkil qilib, Markaziy bank rejasi **106,3 %** bajarilgan. Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar hajmi **6,6 mlrd.so'mni** tashkil etdi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2013 yil davomida bank tomonidan ajratilgan jami kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar evaziga **27 611 dan ortiq yangi ish o'rirlari yaratildi.**

Jami depozitlari miqdori **3,16 trln. so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **427,7 mlrd. so'mga** ko'paygan. Aholi omonatlari qoldiqlari **405 mlrd.so'mni** tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan **95 mlrd. so'mga** yoki **131%** ko'paydi.

Bank bo'yicha jami **87 ta** omonat turi mavjud bo'lib, shundan **57 tasi** milliy valyutadagi va **30 tasi** xorijiy valyutadagi omonatlardir.

Bank filiallariga jami **3 065 mlrd. so'm** naqd pul mablag'lari kirim qilingan.

Bank tomonidan **1 298.4 ming dona** plastik kartochkalari muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **217.7 ming taga** ko'paygan.

Jami **9018 ta terminal** o'rnatilib, shundan **8369 ta** savdo terminali, **188 ta** kommunal to'lovlar qabul qilish uchun, **430 tasi** banklar, minibanklar va maxsus kassalarga o'rnatilgan.

Bank tizimda **27 ta bankomat** va **46 ta infokiosk** aholiga va bank mijozlariga xizmat ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PQ-726-sonli Qarori talablarini ijrosini ta'minlash maqsadida "Asaka" banki "**Moody's Investors Services Ltd**", "**Fitch Ratings Ltd**" reyting agentliklari bilan ishlarni olib borib, bankning moliyaviy holatini "Barqaror" deb qayta tasdiqlangan. Xozirgi kunda bank "**Standard&Poor's**" reyting agentligi bilan xamkorlik ishlarini olib bormoqda.

Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarning mulkiy majmualari umumiy soni **47 tani** tashkil etib, shundan **15 ta** bankrot korxonalar negizida bankning **13 ta** sho'ba korxonasi tashkil qilingan. **38 ta** bankrot korxona yangi sarmoyadorlarga **213,8 mlrd.so'mga** sotilishi ta'minlandi va **11 ta** korxonaning sarmoyadorlari tomonidan **23,7 mlrd. so'mlik** oldi-sotdi shartnomalari to'liq bajarildi.

Bank korxonalari va yangi investorga sotilgan **47 ta** mulkiy majmular negizida **4236 dan** ziyod hodim ish bilan ta'minlandi. Bankning **19 ta** sho"ba korxonalarida esa **2683 nafar** hodim ish bilan ta'minlangan.